

KIRISH VA KIRITMALARNING BADIY MATNDA QO'LLANILISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Yusupova O.S.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU f.f.n., dots.

Asadova M.

4-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15621602>

Annotatsiya. Mazkur maqolada kirish va kiritmalarning badiiy uslubda poetik individuallikni hosil qilish, subyektiv modallikni ifodalash, emotsional-ekspressivlikni oshirish maqsadida qo'llanilishi nasriy, she'riy va dramatik asarlardan olingan misollar asosida yoritib berilgan. Badiiy uslubga xoslangan kirish so'z va kirish bo'laklar, ularning badiiy matndagi o'rni, kiritmalarning o'ziga xos qo'llanilishi izohlangan.

Kalit so'zlar: Kirish va kiritmalar, tarixiy asarlar, poetiklashgan kirish so'zlar, izoh-kiritmalar, remarka.

SOME CONSIDERATIONS ON THE USE OF INTRODUCTIONS AND ENTRIES IN ARTISTIC TEXT

Abstract. This article discusses the use of introductions and entries in artistic style to create poetic individuality, express subjective modality, and increase emotional expressiveness based on examples from prose, poetry, and dramatic works. Introductions and introductory fragments characteristic of artistic style, their role in artistic text, and the specific use of introductions are explained.

Keywords: Introductions and entries, historical works, poeticized introductions, annotations, remarks.

НЕКОТОРЫЕ СОБРАЖЕНИЯ ПО ПОВОДУ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВВОДНЫХ КОНСТРУКЦИЙ И ВСТАВОК В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ПРОЗЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается использование вводных слов и вставок в художественном тексте, их роль в создании поэтической индивидуальности, выражении субъективной модальности и усилении эмоционально-экспрессивной окраски. На основе примеров из прозаических, поэтических и драматических произведений освещается значение вводных конструкций и вставок в художественном стиле. Также дается толкование особенностей употребления исторически и поэтически окрашенных вводных слов, пояснительных вставок и ремарок в художественном тексте.

Ключевые слова: вводные слова и вставки, художественный стиль, исторические произведения, поэтические вводные слова, пояснительные вставки, ремарка.

Badiiy uslub eng murakkab, ijodiy ko'rinishga ega, turli uslub xususiyatlaridan ham foydalana oladigan, shuningdek, o'ziga xos til birliklari mavjud uslub sanaladi. Shu sababdan bu uslubning til xususiyatlari ham stilistik, ham lingvopoetik jihatdan alohida monografik tarzda o'rganilgan.¹ Kiritmalarning badiiy matndagi o'rni alohida tadqiq obyekti bo'lgan.

¹ Каримов С. Ўзбек тилининг бадийи услуби. –Самарқанд: Зарафшон, 1992.

D.Jamoliddinovaning “Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari” nomli dissertatsiyasi ana shu til birliklari tadqiqiga bag‘ishlangan va ular *paranteza* yoki *parantez birliklar* deb atalgan.² Bu birliklar nutqni ta’sirchan qilish, undagi ayrim holatlarga diqqat-e’tiborni qaratish, ayni paytda, subyektiv munosabatni ifodalash vositasi sifatida stilistik mazmun kasb etishi ham ishda ta’kidlangan.

Badiiy uslubda kirish va kiritmalar turli xil ko‘rinisharda, yozuvchi maqsadi bilan qo‘llaniladi. Uslubiy xoslangan kirish so‘z, birikmalar ham, bu birliklarning tarixiy va arxaiik shakllari ham, barcha uslubda qo‘llana oladigan uslubiy betaraf kirish bo‘laklar ham badiiy matnlarda uchraydi. Masalan, alqissa, filhaqiqat, bil’aks kabi kirish so‘zlarning tarixiy shakllari tarixiy asarlarda, she’riyatda keng qo‘llaniladi. Fikrimizni isbotlash maqsadida O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida qo‘llanilgan kirish va kiritmalarni o‘rganib chiqdik. Asarda *aksincha, alqissa, alhazar, alhol, billoh, bil’aks, voajab, vojabo, darhaqiqat, yo rab, yo rabbiy, yo rabbim, yo rabbano, zero, zerokim, zotan, nadomatlar bo‘lg‘aykim, to‘g‘ri, filhaqiqat, hayhot, e darig‘, yo darig‘, vo darig‘, evoh, ehtimol* kabi so‘zlar kirish so‘z vazifasida qo‘llanilgan. Mazkur roman tarixiy asar bo‘lganligi sababli, voqealar yuz bergan davr, XV asr til xususiyatlarini ham o‘zida aks ettirgan. Garchi muallif bayoni hozirgi o‘zbek adabiy tilida bo‘lsa-da, qahramonlar nutqida eski o‘zbek adabiy tiliga xos leksik, grammatik birliklar mavjud. Bu asarning tabiiyligini, ishonarliligini ta’minlaydi. Shuningdek, asarda qo‘llanilgan kirish so‘zlarning ayrimlari, ya’ni *alhol, billoh, bil’aks, vojabo, yo rabbano, zotan, nadomatlar bo‘lg‘aykim, filhaqiqat* kabilar hozirda qo‘llanilmasligi, arxaiklashgani bilan ajralib turadi: *Qalandar esa, garchand madrasani tark etgan bo‘lsa ham, ko‘nglida Mirzo Ulug‘bek hazratlariga hech bir gina-kudurati yo‘q, bil’aks, yuragining bir chetida hamon iliq hislar miltirab turardi.*

Asarlarda qahramon nutqini tabiiyligi ta’minlash, sodda, xalqona nutq hosil qilish uchun yozuvchilar so‘zlashuv nutqiga xos kirishlardan qahramonlar nutqida foydalanadi. Masalan, Tog‘ay Murod qissalarida ana shunday o‘ziga xoslikni ko‘ramiz. Adib mavjud kirish so‘zlardan o‘ziga xos tarzda foydalangan: *Bo‘zbola qomatini g‘oz tutadi. ...Bir nuqtaga tikiladi. Qayerga tikiladi, nimaga tikiladi? Bilmaymiz, biz bilmaymiz. Inchunin, o‘zi-da bilmaydi; Aqalli, bir, bir yomonligimizni ko‘rsa bo‘ldi!* (T.Murod. “Ot kishnagan oqshom”, 219); *Ko‘ngliga o‘tirmaydiganlar bilan salomlashgisida kelmaydi! Oqibat, bo‘zbola bizni nazarga ilmaydi, deymiz. Oqibat, bo‘zbolani birovimiz xush ko‘ramiz, birovimiz noxush ko‘ramiz* (T.Murod. “Ot kishnagan oqshom”, 219). O‘z usuli, yo‘liga ega bo‘lgan Tog‘ay Murod har bir qissasida til birliklaridan foydalanishda juda e’tibor bilan yondashgan. Shuningdek, kirishlarni qo‘llashda ham ana shu alohidalikka duch kelamiz. Masalan, “Momo yer qo‘shig‘i” qissasida fikrni tugallash mazmunida intiho so‘zi kirish vazifasida qo‘llanilgan. Hozirgi zamon adabiyoti namunlarida bu so‘zning kirish so‘z bo‘lib kelishi deyarli yo‘q. Bu esa yuqoridagi fikrimizga dalil bo‘lib xizmat qiladi: *Xumor xola qo‘lini boshi uzra soyabon qildi. O‘g‘li kelmish Denov yo‘liga qaradi. Intiho, askar keldi* (T.Murod. “Ot kishnagan oqshom”. Qissalar, 356).

Badiiy uslubda kirishlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri ularning takror holda qo‘llanilib, subyektiv ma’noni yanada kuchaytirib ifodalashidir:

² Жамолиддинова Д. Бадий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2009.

Badiiy asarda kirish soʻzlar takror holda qoʻllanilishi mumkin. *Zirq, zirq!.. Xayriyat, xayriyat-ye, koʻpkari sob boʻldi!* (T.Murod. “Ot kishnagan oqshom”); *Ha, yaxshi-yaxshi! Ishqilib, boʻsh kelmanglar! Sizlar, yelning yeʼtibori-da!* (Ulugʻbek Hamdam. “Sabo va Samandar”).

Kirish soʻzlar poeziyada prozada ishlatilgandek faol qoʻllanilmasa-da, lirik qahramon kechinmalarini, hayajonlarini, voqea-hodisaga munosabatini, mulohazalarini ifodalash uchun, individual nutq tuzish uchun qoʻllaniladi. Sheʼriyatda *ajab, ajabo, yoʻq ajab, vo ajab, voh ajab, ne ajab, ne ajabkim, ne iloj, taajjub, taassuf, taassufkim, avfiullohkim, nihoyat, ishqilib, toʻgʻri, harqalay, qiziq, yoʻqsa, balki, yaxshisi, yaxshiki, mayli, mayliga, ne tongkim, ne tong, ne iloj, alalxusus, hayhot, afsus, filjumla, filhaqiqat, voqean, beshak, shaksiz, shoyad, holbuki, hayriyat, nazdimda, xullas, xullasi, ehtimol, ehtimolki, koshki, koshkiydi, hoynahoy, kabilar* kirish soʻz vazifasida keladi: *Filjumla, bu gaplar sizga kerakmas, / Azizingiz bordir. / Baxtiyor siz, u / Boshqaman, mutlaqo chekmayman afsus, Yurakni otaman chinni laganga, Yana bir sevaman, Alalxusus, Ismimni aytaman qamashganlarga.*

Dramatik asarlarda kirish soʻzlar koʻproq soʻzlashuv nutqida qoʻllaniladigan soʻzardan tashkil topadi. Chunki dramatik asarda nutq shakli asosan qahramon nutqidan tashkil topganligi sababli xalqonalik, tabiiylik, jonlillikni taʼminlash uchun dramaturglar shu yoʻldan foydalanadilar: *Umuman, yomon emas. Men mutaxassis emasman-u, lekin hammasi bir xilday tuyulyapti. Menimcha, rang-baranglik yetishmaydi.* (Sh.Boshbekov. “Eshik qoqqan kim boʻldi?”, 4); *Albatta, militsiya aralshadi. Mayli, u yogʻini aytmayman – oramizda oʻn olti yoshga toʻlmaganlar bor* (Sh.Boshbekov. “Eshik qoqqan kim boʻldi?”, 53). Kirish soʻzlar vaziyat talabi bilan qoʻllanilishidan tashqari individual nutq yaratishda ham ishlatiladi. Masalan, “Tikansiz tipratikanlar” dramasida Misriyo nutqida kirish soʻzlar faol. Chunki Misriyo otasi nutqiga taqlid qiladi. *Avvalombor, janjallashishga arziydigan bir sabab topinglar, keyin bitta urishinglar-da, nuqta qoʻyinglar* (Sh.Boshbekov. “Eshik qoqqan kim boʻldi?”, 51). Shu oʻrinda aytib oʻtish zarurki, Sh.Boshbekov qahramonlar nutqini individuallashtirishda kirish soʻzlardan oʻrinli foydalangan. Masalan, Husan nutqida bilasiz, desangiz kabi feʼl soʻz turkumiga oid soʻzlar kirish soʻz vazifasida kelsa, Misriyo nutqida shaxsan soʻzi kirish soʻz vazifasida kelgan.

Bizga maʼlumki, kirish soʻzlarga qaraganda kiritma gaplar asarlarda oʻziga xoslikni, individuallikni koʻproq hosil qiladi. Chunki kirish soʻzlar maʼlum miqdorda boʻlib, ularni boshqalardan farqli holatda qoʻllash yozuvchidan oʻta mohirlikni talab qiladi. Biroq kiritmalar nutq vaziyati bilan kelib chiqib, har bir yozuvchini oʻziga xos uslubini bemaolol koʻrsata oladi. Bu haqida quyidagi mulohazalar fikrimizni dalillaydi: “Ular nutqning aniqqligi va toʻliqligini taʼminlaydigan muhim vositalar sifatida nutqning deyarli barcha uslublarida qoʻllanadi. Ammo badiiy va publitsistik uslublarda qahramon xarakterini ochish, uning nutqini individuallashtirishdagi muayyan holatlarni izohlash, fikr ifodalashning oʻziga xos usuli kabi vazifalarni ham bajaradi.”³ Masalan, adibning “Oʻzbeklar” hikoyalar toʻplamida muallifning qahramon haqidagi maʼlum fikrlari kiritma orqali bayon etilgan: *Iskandar (u endi Iskandar Vahobovich emas, Iskandar, oddiy Iskandar boʻlib qolgandi, negaki, oʻlim hammani baravar*

³ Mahmudov N., Sobirov A., Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. –B.83.

qilib qo'yadi) vazmin qadamlar bilan salqin dahlizga chiqdi (O'tkir Hoshimov. "O'zbeklar", 40-b). Adibning "O'zbeklar" hikoyalar to'plamidan olingan "Negadir" hikoyasida jizzaki, tajang, turmush qiyinchiliklaridan yanada tajanglashgan, Afg'onistonda urushda xizmat vazifasini o'tayotgan yolg'iz o'g'lini o'ylab siqilgan ota obrazi, uning o'y-xayollari asar voqealari bayoni bilan birga kiritma ko'rinishida ifodalangan: *Har kuni bitta yo'ldan yuraverganingdan keyin o'rganib ketarkansan. Sakkiz yildan beri shu (qamoqdan qaytganidan buyon). Qoraqamish "ikki-bir"dan (topgan nomini qarang: "ikki-bir"mish, o'lsin agar, odamning tili kelishsa)) sekin yo'lga tushadi. Bitta-bitta yur-e-eb talabalar shaharchasiga keladi. Trolleybusga o'tirib (ertalab joy bemalol-da) O'rdagacha boradi* (O'tkir Hoshimov. "O'zbeklar", 57-b).

Nasriy asarlarda kiritmalarning qo'llanilishi mavzu talabi bilan bo'lishi mumkin.

Masalan, tarixiy asarlarda arxaik va tarixiy so'zlar ko'p keltiriladi. Bu kitobxonda tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Yozuvchi shu tushunmovchiliklarning oldini olish uchun so'z izohini (tarixiy so'z ma'nosini, arxaik so'zning zamonaviy muqobilini) kiritma tarzida keltiradi: *Ota-onadan yetim, homiysiz qolgani yetmagandek, musofir yurtida u mafosil (suyak sirqirash) kasaliga muhtalo bo'ldi* (Mirkarim Osim. "Singan sitor", 73).

Bundan tashqari, kiritmalar badiiy matnlar ichida dramatik nutqda eng faol bo'lib, maxsus nom bilan remarka deb ataladi va dramatik asarlar tilining o'ziga xos belgisi sanaladi.

Xarakterlar kurashi, voqea-hodisalar qahramonlar nutqi orqaligina shakllanadi. Muallif eng zarur paytlardagina remarka orqali vaziyatga, obrazlarga izoh, tushuntirish beradi: *Ayol: (oshkora yig'lab) Yo'q, yo'q, yo'q, bunaqa demadingiz, axir!..* (Sh.Boshbekov. "Eshik qoqqan kim bo'ldi?", 42).

Xullas, kirish va kiritmalar badiiy adabiyotning uch turida ham faol qo'llaniladi hamda ma'lum vazifa bajaradi.

REFERENCES

1. Бошбеков Ш. Эшик қоққан ким бўлди? Пьесалар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. –268 б.
2. Ёкубов О. Улуғбек хазинаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. –251 б.
3. Жамолиддинова Д. Бадий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2009.
4. Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарқанд: Зарафшон нашриёти, 1992. –Б.34.
5. Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2010. -192 б.
6. Mahmudov N., Sobirov A., Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
7. Тоғай Мурод. От кишнаган оқшом. Қиссалар. –Тошкент: Шарқ, 1994. –464 б.